

JABBOROVA O.

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA
ME'YORIY HUJJATLARNI
YURITISH**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Jabborova O.M.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA
ME'YORIY HUJJATLARNI
YURITISH

-14040/58-

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

Chirchiq – 2023

«Yangi chirchiq books»

UOK: 37,373

KBK: 74.104

J-13

Jabborova O. / Boshlang'ich ta'limda me'yoriy hujjatlarni yuritish. /
O'quv qo'llanma. - Chirchiq: «Yangi chirchiq book», 2023. — 128 bet.

Mazkur o'quv qo'llanma oliy pedagogik ta'lim muassasalarining 60110500-Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalar, amaliy faoliyatidagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari va mustaqil tadqiqotchilarga mo'ljallangan bo'lib, unda boshlang'ich ta'limda me'yoriy hujjatlarni yuritishning asoslari, metodikasi hamda samaradorligi masalalari tahlil etilgan. Ushbu o'quv qo'llanma boshlang'ich ta'limni tashkil etish va boshqarish bo'yicha yangi o'quv dasturi asosida yaratilgan ilk o'quv adabiyoti hisoblanadi hamda unda o'qitishning kredit-modul tizimi talabalariga amal qilingan.

MAS'UL MUHARRIR:

Mardonov Shukurullo Qo'ldoshevich, pedagogika fanlari doktori,
professor

TAQRIZCHILAR:

Kuchkinov Abdumalik Yo'ldoshevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

Po'latova Dilдора Turgunovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 27 martdagi 68-sonli buyrug'i asosida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-9513-7-2

© Jabborova O., 2023
© «Yangi chirchiq book», 2023

MUNDARIJA

1-MODUL: "Boshlang'ich ta'limning asosiy me'yoriy hujjatlari"	4
1-mavzu: Boshlang'ich ta'limning qonun hujjatlari	4
2-mavzu: Boshlang'ich ta'limning tashkiliy hujjatlari	16
3-mavzu: Boshlang'ich ta'limning halqaro ta'lim hujjatlari	27
4-mavzu: Boshlang'ich ta'limning me'yoriy hujjatlarni o'rganish tizimi	39
5-mavzu: Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarning pedagogik faoliyatidagi ahamiyati	46
2-MODUL: "Boshlang'ich ta'limning me'yoriy hujjatlarni yuritish metodikasi"	54
6-mavzu: Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarni tizimlashtirish	54
7-mavzu: Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarning ijrosini ta'minlash	61
8-mavzu: Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarni yuritishni takomillashtirish bo'yicha	68
9-mavzu: Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarni yuritish bo'yicha hisobot tayyorlash	74
3-MODUL: «Boshlang'ich ta'limning me'yoriy hujjatlarni yuritish samaradorligi»	83
10-mavzu: Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarni yuritish bo'yicha individual tajribani shakllantirish	83
11-mavzu: Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarni yuritish bo'yicha ilg'or tajribalarni o'zlashtirish	89
12-mavzu: Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarni yuritishni texnologiyalashtirish	97
13-mavzu: Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarni yuritish jarayonini monitoring qilib borish	103
14-mavzu: Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarni yuritish bo'yicha arxiv ishi	109
15-mavzu: Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarni yuritish bo'yicha yangiliklarni o'rganib borish tizimi	115
Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar	121
Tavsiya etiladigan adabiyotlar	122
Glossariy	124

I-MODUL: "BOSHLANG'ICH TA'LIMNING ASOSIY ME'YORIY HUJJATLARI"

I-mavzu: Boshlang'ich ta'limning qonun hujjatlari

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida boshlang'ich ta'limga oid normalar.
2. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning boshlang'ich ta'limga oid normalarini o'rganish.
3. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning boshlang'ich ta'limga oid shartlarini o'zlashtirish.

Tayanch tushunchalar:

Qonun, boshlang'ich, ta'lim, me'yori, xujjat, norma, tashkil etish, o'rganish, o'zlashtirish.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida boshlang'ich ta'limga oid normalar. Me'yoriy hujjat – bu muayyan huquqiy va qonuniy jihatdan tartibga solingan hamda tegishli davlat boshqaruvi organi tomonidan tasdiqlangan hujjatlar majmui

hisoblanadi. Shu jihatdan bugungi kunda boshlang'ich ta'limning asosiy me'yoriy hujjatlari mamlakatimizda quyidagilar hisoblanadi:

- 1) ta'limga oid qonunlar;
- 2) Milliy malaka ramkasi;
- 3) davlat ta'lim standartlari va malaka talablari;
- 4) o'quv reja va dasturlar.

Bu o'rinda e'tiboringizni boshlang'ich ta'limning asosiy me'yoriy hujjati O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun talabiga tortamiz.

Mamlakatimizda amaldagi O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun yangi tahririda 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan va uning asosida ta'lim tizimini tashkil etish hamda boshqarish ishlari amalga oshirib kelimoqda. Qonun 11 bob va 75 moddadan iborat. Mazkur qonun milliy me'yoriy hujjatlar tajribasi va jahon huquqi an'analariга mos ravishda ishlab chiqilgan. Shu sababli boshlang'ich ta'limni tashkil etishda ushbu qonunning eng avvalo *normalariga* e'tibor berish kerak bo'ladi. Norma – bu me'yoriy hujjatlarning asosli mezonlari bo'lib, ular huquqiy va majburiy tusga ega hisoblanadi. Shu jihatdan ta'lim to'g'risidagi milliy Qonunimizning normalarini aniqlab olish va o'rganish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun muhimdir. Qonunda

¹ Karimov, Xolmurodov J. va boshq. Педагогика Фанидан изоҳли аргат. – Тошкент, 2009. Ахмедов Р. Мактаб бунёдларидаги меъна назорат. – Тошкент, 1996. Ахмедов Р. Ўзбекистон Республикасида мактаб таълими тизимини бунёдлашнинг меъёрий ҳужжатлари. – Тошкент, 1997. Мирқосимов М. Мактаб бунёдларининг назарий ва педагогик асослари. – Тошкент, 1997. Каримов А. Таълим тизимини бунёдлаш асослари. – Тошкент, 2012 й. к.

boshlang'ich ta'limga oid quyidagi yo'nalishlarda normalar belgilangan:

- a) asosiy tushunchalar izohi;
- b) boshlang'ich ta'limni tashkil etish huquqlari va majburiyatlari;
- v) boshlang'ich ta'lim jarayonini boshqarish asoslari;
- g) boshlang'ich ta'lim samaradorligini baholashning huquqiy omillari.

Ushbu normalarga asosan umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich ta'lim tashkil etiladi va boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiyasi yo'lga qo'yiladi.

Qonunning 4-moddasiga binoan "o'n bir yillik ta'limning hamda olii yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlash majburiy" hisoblanadi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limga o'quvchilar 7 yoshga kiradigan yilida qabul qilinadi. Mazkur moddaga asosan bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dod rag'batlantiriladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'lim jarayoniga qabul qilishda ularga bilim berish, qobiliyatini rivojlantirish va iste'dodini ro'yobga chiqarish asosiy maqsad hisoblanadi. Bular bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan chuqur o'zlashtirilishi taqozo etiladi. Chunki bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilari ayni ushbu qonun asosida faoliyat yuritishadi.

Qonunning 6-moddasiga binoan mamlakatimizda ta'lim tizimini quyidagilar tashkid etadi:

- davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari, o'quv rejaları va o'quv dasturlari;
- ta'limni amalga oshiruvchi tashkilotlar;
- ta'lim sifatini amalga oshiruvchi tashkilotlar;
- ilmiy-pedagogik muassasalar;
- ta'lim sohasini boshqarish organlari.

Ushu tizim asosida mamlakatimizda ta'lim amalga oshiriladi. Misol uchun, Vazirlar Mahkaması huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi maktabgacha ta'limdan boshlab doktorantura ta'limigacha bo'lgan ta'lim jarayonining sifatini monitoring qiladi. Unda sifati ta'lim berish, maqsadli tarbiyani amalga oshirish va ta'lim oluvchilarning o'quv-tarbiyalanganlik darajasini aniqlash masalalariga asosiy e'tibor qaratiladi. Shu jihatdan mamlakatimizda ta'lim tizimini yagona va uzluksiz hisoblanadi.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning boshlang'ich ta'limga oid normalarini o'rganish. Ushbu qonunning 9-moddasiga binoan mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim o'n bir yillik bo'lib, unda boshlang'ich ta'lim 1-4-sinflarni qamrab oladi. Bunda boshlang'ich ta'limning asosiy vazifasi sifatida quyidagilar belgilangan: "Boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va